

**Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi
zamonaviy usullar**

Dadajonova Zulfiya To‘ychiyevna

*Toshkent viloyati Piskent tumani 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi zamonaviy usullar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, nutqi, tafakkur, o‘quv materiali, metodika, ta’lim samaradorligi, o‘qitish va tarbiyalash, taqqoslash, she’r, qo‘sish sharlar...

O‘quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o‘sib boradi. Ravon, ixcham, ta’sirli nutq tinglovchiga huzur bag‘ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o‘z o‘quvchilarini ana shunday so‘zlashga o‘rgatishdir. Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o‘rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak-atrofda bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Maktablarda o‘rgatiladigan fanlarning tarqoqligi mакtab bitiruvchisida bir ko‘rinishli dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Bunday zamonaviy dars turlarini qo‘llashdan asosiy maqsad o‘quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o‘quvchilarda dunyonи o‘zgacha tasavvur qilishga o‘rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog‘lashga, nazariy qoidalarni so‘zma-so‘z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg‘unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandard tafakkur qilishga, shuningdek, o‘zo‘zini rivojlantirish

yo'llarini tushunishga imkon yaratadi. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratilishi lozim.


O'qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilashi mumkin:

Birinchi bosqich - tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko'chiriladi.

Ikkinci bosqich - mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya)lar, metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich - yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to'la ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich - o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.



O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhitni, jamoa a'zolarining qanchalik darajada dunyo ta'lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur. Bugungi ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi,

ta’lim oluvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan voz kechish, aksincha, ijobiy rag‘batlantirishning ustunligi tufayli ko‘zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo‘lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo‘llashda namoyon bo‘lsa, ta’lim jarayonini demokratlashtirish esa o‘qituvchi va o‘quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o‘z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni taqozo etadi.

“Qo‘sh sharlar” usuli. Bu usul orqali mavzular mustahkamlab olinadi. Bunda xohlagan she’rning istalgan misralaridan sharlarga yozilgan bo‘ladi. Rangli qog‘ozdan tayyorlangan sharlarga she’rdan tushurib qoldirilgan so‘zlarni topadi.



Xullas, hozirda yoshlar ma’naviy hamda ta’lim-tarbiya jihatidan kuchli va raqobatga chiqa oladigan bo‘lishlari kerak. Ular o‘z bilim va malakalari bilan dunyo miqyosiga chiqishlari va yurtimiz kuch-qudratini butun jahonga ko‘rsatishlari lozim. Vatanimiz yoshlarini har jihatdan qo‘llab-quvvatlashda ham gap ko‘p. Ularning zamonaviy bilim egallashlari, yetuk ma’naviyatli inson bo‘lib kamol topishlari uchun kerakli shartsharoitlar yaratish borasidagi ishlar izchil davom etmoqda. Yurt yuksalishining muhim kafolati xalqning kuchli bilimga ega ekanligi sanaladi. Hech bir mamlakat o‘z aqliy quvvat va

imkoniyatlariga tayanmay, inson tafakkurida ma’naviy, aqliy va axloqiy qadriyatlarni rivoj toptirmay, jamiyatning milliy ruhini uyg‘otmay turib, buyuk taraqqiyot darajasiga ko‘tarilmagan va ko‘tarila olmaydi ham. Yurtimizdagi bu boradagi o‘zgarishlar tahsinga sazovor.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011-yil
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.